



«Xalq Invest»

Yangilangan sana: Tue, Iyul, 3, 2018



Aksiyadorlik tijorat Xalq bankida investitsion faoliyat va aktivlarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2008 yildagi 4053-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.11.2008 dagi 1438-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki Boshqaruvining 04.07.2011 dagi 31-sonli Qaroriga asosan "Xalq Invest" MChJ investitsion-injinirov kompaniyasi tashkil qilindi.

«Xalq sug'urta» kompaniyasi O'zbekistonning sug'urta bozorida faoliyatini 2011 yil may oyida boshlagan. Ustav fondi 1,5 mln. yevro miqdorida shakllantirilgan kompaniya Xalq bankining 100% shu'ba korxonasi hisoblanadi. Germaniya jamg'arma kassalari Fondi va O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki bilan yaqin hamkorlik kompaniyaga qisqa muddat ichida mikrosug'urtalash xizmatlarini boshlash, sug'urta xizmatlarini tarqatish tarkibi va yo'llarini belgilab olish imkonini berdi.

Baxtsiz hodisalardan sug'urtalash:

- Maktabgacha tarbiya ta'lim markazlari tarbiyalanuvchilari;
- Boshlang'ich ta'lim maktablarining o'quvchilari;
- O'rta maxsus ta'lim muassasalarining o'quvchilari;
- Oliy o'quv yurtlarining tinglovchilari;
- Oila a'zolari;
- Sportchilar;
- Jismoniy shaxslar;
- Bank omonatchilari

Sug'urtalashning boshqa turlari:

- Kasallik holati yuzasidan sug'urtalash;
- Avtotransport vositalarini majmuaviy sug'urtalash;
- Garovga qo'yiladigan avtotransport vositalarini majmuaviy sug'urtalash;
- Mashinalar, mexanizmlar va uskunalarni buzilishdan sug'urtalash;
- Mulkni sug'urtalash;
- Garovga qo'yiladigan mulkni sug'urtalash;
- Mulkni zarar yetkazishdan, yong'indan va tabiiy ofatlardan sug'urtalash;
- Yo'lda bo'lgan mulkni sug'urtalash;
- Kredit qarz oluvchisini sug'urtalash;
- Qurilish-montaj xavf-xatarlarini sug'urtalash;
- Majmuaviy sug'urtalash (ipoteka)

Links

[1] <http://xalqinvest.uz/>